

SAMARQAND – SHARQ GAVHARI

Sirocheva Gulshoda

Registon ansambli gid tarjimoni

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada ko‘hna va hamisha navqiron bo‘lgan qadim Samarqandning bor bo‘y-basti badiiy so‘z vositasida gavdalantirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** YUNYESKO, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi”.*

Tarixiy obidalarga boy Samarqand O‘rta Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biridir. U arxeologik ma‘lumotlarga ko‘ra miloddan avvalgi VIII asrda tashkil etilgan. 2000 yildan ortiq vaqt davomida bu shahar Xitoy va Yevropa o‘rtasidagi Buyuk Ipak yo‘lining muhim nuqtasi, shuningdek, O‘rta asr Sharqidagi ilm-fanning asosiy markazlaridan biri bo‘lgan. 2001-yilda YUNYESKO tomonidan “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” deb e‘lon qilindi. Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand ta‘rifiga til ojiz. Azim shahar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lish uchun bu erga, albatta, tashrif buyurish lozim. Bejiz bu ko‘hna kent borib ko‘rish shart bo‘lgan dunyodagi 10 ta shahardan biri sifatida e‘tirof etilgani yo‘q.

Hududda ulkan rekonstruksiya ishlari olib borilgach, 1105 ta arxeologik, 670 ta me‘moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental, 21 memorial toifaga kiruvchi jami 1851 moddiy-madaniy meros obyekti mavjudligi bu boradagi imkoniyatlar nechog‘lik yuqoriligi ko‘rsatildi. Ziyoratchi sayyohlarga Amir Temur maqarasi, Registon ansambli (Sherdor, Tillakori, Mirzo Ulug‘bek madrasalari), Bibixonim va Xazrati Xizr masjidlari, Shohi Zinda yodgorligi, Xo‘ja Doniyor ziyoratgohi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, Samarqand tumanidagi Nodir devonbegi kompleksi, Xo‘ja Ahror Valiy masjidi, Urgut tumanidagi G‘avsul A‘zam, Xo‘ja Omon, Chor Chinor ziyoratgohlari, Payariq tumanidagi Imom Al Buxoriy majmuasi, Nurobod

tumanidagi Xazrati Dovud ziyoratgohlari yo‘nalishlari bo‘yicha xizmat ko‘rsatiladi. Barcha ziyoratgohlarda o‘rnatilgan videokuzatuv moslamalari orqali jamoat tartibi nazoratga olingan, sayyohlar va mehmonlarning kirish chiqish jarayonlari bevosita turoperatorlar hamda ichki ishlar organlari vakillari ishtirokida amalga oshirilmoqda. Sivilizatsiyaga har jihatdan munosib ulush qo‘shgan muborak go‘sha xalqaro anjumanlarga mezbon sifatida ham tanilmoqda. Ayni paytda muhim siyosiy anjuman, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (SHHT) davlat rahbarlari kengashiga ham mezbonlik qilmoqda.

Samarqand viloyatidagi muzeylar faoliyatini yanada kengaytirish, ularning xorijiy mamlakatlar muzeylari bilan, jumladan, ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida hamkorlikni kuchaytirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Yaponiya, Frantsiya va Janubiy Koreyaning arxeologik institutilari va muzeylari mutaxassislari bilan aloqalar o‘rnatilgan. Xususan, Afrosiyob muzeyining “Elchilar xonasi”dagi devoriy suratlarni bosqichma-bosqich asl holatiga keltirish ishlari olib borilayotgan bo‘lsa, ko‘hna Afrosiyob tepaligida joylashgan So‘g‘diyona (qadimdagi Maroqand yoki Afrosiyob) shahrining eski ko‘rinishi aks ettirilgan 3D treki sayyohlarga namoyish etilmoqda. Samarqand davlat birlashgan tarixiy-me‘moriy va badiiy muzey-qo‘riqxonasi hamda O‘zFA Arxeologiya instituti tomonidan Samarqanddagi madaniy-tarixiy obidalar to‘g‘risida tarixiy manba va ma’lumotlar joylashtirilgan broshyuralar va bukletlar tayyorlangan.

Samarqand shahrida turistik mavsumda ziyoratchilar va sayyohlar oqimining ko‘pliginini inobatga olib, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati hamda “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tomonidan qo‘shimcha reyslarni tashkil etilgan. Bundan tashqari, shahar xalqaro aeroportida yengil konstruksiyali markaz loyihasi asosida turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi Axborot markazlari tashkil etilgan. Bu erda istagan kishi turistik obyektlar tushirilgan xaritalar, mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini aks ettiruvchi turli tarqatma materiallar bilan tanishishi mumkin.

Turizm salohiyatini yanada kengaytirish, xorijiy sayyohlar va viloyat aholisi dam olishlari uchun qo‘shimcha infratuzilma obyektlari sonini ko‘paytirish maqsadida

qabul qilingan Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan hududda 40 ta yangi mehmonxona barpo etiladi. Samarqand viloyatdagi turizm imkoniyatlari xususida ko‘p va xo‘p gapirish mumkin. Ammo bu go‘zalliklarni ko‘rish uchun o‘zingiz bir kelib keting, qadim Samarqandimga!

Xalqimiz mehmondo‘stligi, mehmonnavozligi bilan shuhrat qozongan. Biror o‘zbek xonadoni, oilasi yo‘qki, mehmonni xursandchilik bilan kutib olmagan, uyidagi bor ne‘matlarni dasturxonga keltirib to‘kmagan bo‘lsa. “Mehmon – otangdan ulug‘”, “Mehmon kelar eshikdan, rizqi kirar teshikdan”, “Mehmon oldida hatto mushugingni pisht dema” kabi maqol va hikmatlar bejizga aytilmagan.

Hadisi shariflarda ham mehmonni izzat qilish, mehmonnavozlik ajri ulug‘ amal ekanligi ta’kidlangan. Abu Shurayh al-Ka’biy roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning: **“Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, mehmonini ikrom qilsin”** (Abu Dovud rivoyati), deganlari rivoyat qilingan.

Alloh taolo Samarqandni butun insoniyatga manfaat keltirishga xizmat qiladigan ezgulik shahri bo‘lishini nasib qilgan ekan u mehmonlariga eshik ochaversin. Mehmonlarning tashrifi sababidan yurtimiz va xalqimizning shuhrati butun dunyoga yoyilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muratova, G. R., & Komilova, M. (2022). PARALIMPIYA SPORTI IMKONIYATLARI CHEKLANGAN SHAHSLARNI IJTIMOIYLASHTIRISH USULI SIFATIDA. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 697-701.
2. Muratova, G. R. (2021). To the problems of self-assessment of children with disabilities through adaptive physical education and sport. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 455-458.
3. Муратова, Г. Р. (2020). ВОПРОСЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, (SI).

4. Asqarova, S. I. (2020). Terminology Of The Direction Of Language Contacts In Modern Linguistics. *Scientific Bulletin Of Namangan State University*, 2(11), 234-239.
5. Askarova, S. I. (2019). Bilingualism and polylingualism: aspect of linguistics c
6. Askarova, S. (2020). German borrowings at the level of vocabulary in the conditions of Uzbek-German and Uzbek-Russian Bilingualism (In Conditions Covid-19). *European Journal Of Molecular And Clinical Medicine*, 2943-2953.
7. Askarova, S. (2023). ОСОБЕННОСТИ БИЛИНГВИЗМА В УСЛОВИЯХ ЯЗЫКОВЫХ КОНТАКТОВ. *Eurasian Journal of Academic Research*, 3(2 Part 4), 190-194.
8. Askarova, S. I. (2022). О ПРОБЕЛМЕ ЯЗЫКОВОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 72-77.